



SUG'URTA VA TAKOFUL TASHKILOTLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHDA ZAXIRALAR VA MAJBURIYATLARNING TA'SIRI: O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI MISOLIDA

Abdurasulov Behzodbek Bahodir o'g'li -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

“O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a48

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining likvidlik darajasiga ularning sug'urta zaxiralari va joriy majburiyatlari ta'siri o'rganilgan. Likvidlik darajasini saqlash sug'urta tashkilotlarining to'lovga layoqatliligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois ularning operatsion faoliyatida likvid aktivlarning salmoqli o'ringa ega bo'lishi, shuningdek, ularning majburiyatlarini qoplay olishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida biz ana shu munosabatni modellashtirishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, likvid aktivlar, pul mablag'lari, sug'urta zaxirasi, joriy majburiyatlar, likvidlik koeffitsiyenti, takoful, CAMELS, transformatsiyalashgan chiziqsiz model, sug'urta zaxirasining ulushi.

ВЛИЯНИЕ РЕЗЕРВОВ И ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЛИКВИДНОСТИ СТРАХОВЫХ И ТАКОФУЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ: НА ПРИМЕРЕ СТРАХОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА

Абдурасулов Бехзодбек Баходир угли -

Докторант научно-исследовательского центра

«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние страховых резервов и текущих обязательств на уровень ликвидности страховых организаций, действующих в Узбекистане. Поддержание уровня ликвидности играет важную роль в обеспечении платежеспособности страховых организаций. Поэтому иметь значительную долю ликвидных активов в своей операционной деятельности, а также иметь возможность покрывать свои обязательства является одним из актуальных вопросов. В данной исследовательской работе мы попытались смоделировать эту взаимосвязь.

Ключевые слова: финансовый отчет, ликвидные активы, денежные средства, страховой резерв, текущие обязательства, коэффициент ликвидности, такафул, CAMELS, трансформированная нелинейная модель, доля страхового резерва.

THE EFFECT OF RESERVES AND LIABILITIES IN ENSURING THE LIQUIDITY OF INSURANCE AND TAKOFUL ORGANIZATIONS: THE CASE OF THE INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

Abdurasulov Behzodbek Baxodir ugli -

A Doctoral student of the scientific research center

“Scientific bases and problems of the development of Uzbekistan's economy” under TSUE

Abstract. This article discusses the impact of insurance reserves and current liabilities on the liquidity level of insurance organizations operating in Uzbekistan. Maintaining the level of liquidity plays an important role in ensuring the solvency of insurance companies. Therefore, having a significant share of liquid assets in its operating activities, as well as being able to cover its obligations, is one of the topical issues. In this research paper, we attempted to model this relationship.

Keywords: Financial statement, liquid assets, cash, insurance reserve, current liabilities, liquidity ratio, takaful, CAMELS, transformed non-linear model, share of insurance reserve.

Kirish. Yurtimizda sug'urta bozorini takomillashtirish, sifatli xizmatlar ko'lamini oshirish, sug'urta kompaniyatlarining moliyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bundan tashqari mijozlarning huquqlarini himoya qilish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aytish joizki, hozirda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga, aholi turmush tarzi sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug'urta bozorining rolini kuchaytirish va su-

g'urta vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda. Shu maqsadda Prezidentning “O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4412-sonli qarori qabul qilinishi bejiz emas.

Sug'urta bozori deganda, sug'urta hodisasi yuz berganda, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta

xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi. Sug'urta bozori rivojlantirishining muhim shartlaridan biri sug'urta xizmatlariga ehtiyoj va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir. Shu bois sug'urta bozorini diversifikatsiya qilishga ehtiyoj bor deyishga yetarli asoslar mavjud. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun potensial sug'urta instrumenti takoful hisoblanadi. Takoful islom shariati qoidalari va tamoyillariga rioya etadigan maxsus kompaniya boshqaruvi ostidagi, barcha turdagi xavf-xatarlarni qamrab olgan korporativ sug'urtaning bir shaklidir. Islom moliyasiga muvofiq sug'urta shartnomasi o'zaro yordam va xayr-ehson asosida tuziladi, turli xatarlar tufayli vujudga kelgan zarar yoki yo'qotishlar a'zolar o'rtasida adolatli taqsim etiladi (ya'ni ko'rilgan talafot o'rni a'zolar tomonidan kiritilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi)[1].

Ikkala sug'urta instrumentlari ham umumiylikka ega – bu risklardan himoyalashga bo'lgan ehtiyojni qondirish. Bu sug'urta tizimlarida mulluk sug'urtasi alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, bu borada sug'urta va takoful tashkilotlarining mulluk sug'urtasi bo'yicha qabul qilishi mumkin bo'lgan maksimal javobgarligi chegarasini belgilab olishga ehtiyoj mavjud. Bu borada hududlar kesimida turar joy narxlarining ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, chunki sug'urta javobgarligi sug'urta obyektining bozor bahosidan oshiq bo'lishi mumkin emas.

Ma'lumki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan moliyaviy barqarorlik indeksleri (FSI – Financial soundness indicators) ishlab chiqilgan. Sug'urta kompaniyalari uchun mo'ljallangan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari CAMELS tahlili orqali ishlab chiqiladi. Unda kapital adekvatligi, aktivlar sifati, qayta sug'urta, da'volar adekvatligi, boshqaruv samaradorligi, foyda va rentabellik, likvidlik va riskka ta'sirchanlik mezonlari bo'yicha sug'urta tashkilotlari baholanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sug'urta tashkilotlarining to'lovga layoqatliligi ularning likvidlik ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq. L.Agarkovaga ko'ra, likvidlikni tahlil qilish kompaniyaning mavjud sug'urta majburiyatlarini qoplash qobiliyatini aniqlash va aktivlarni boshqarishni yaxshilash uchun zarurdir [2].

Shuningdek, E.Perotti va J.Suarez olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, likvidlik va kapitalni sug'urtalash tizimida iqtisodiyotni tizimli inqirozdan himoya qilish qo'l kelishi mumkin. Sug'urta tizimini moliya tizimining hajmi va murakkabligini hisobga olgan holda iqtisodiyotning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish mumkin [3].

A.Nizametdinov fikriga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining aktivlarini joylashtirish likvidlik, qayta-

rishlik, foydalilik va diversifikatsiya tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim [4]. Shu jihatdan olib qaraganda, sug'urta kompaniyalarining likvidlik masalasining ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari likvidlik masalasini tadqiq qilgan H.H.Liu fikriga ko'ra, likvidligi yuqori bo'lgan sug'urtalovchilar ko'proq qayta sug'urtani sotib olishadi, qayta sug'urtaga bog'liqligi yuqori bo'lganlar esa yuqori likvidlikni saqlab qolishga moyildirlar. Ammo qayta sug'urta va likvidlik o'rtasida teskari parabolik bog'liqlik mavjud, ya'ni teskari -U shaklida [5].

Uemmer va Dayter olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini sekyuritizatsiya qilish orqali uzoq yillar davomida kamroq kredit riski xavfi bilan yirik kapital bozoriga eshiklarni ochib beradi. Ammo ma'lumotlarning yetarli emasligi va bu jarayonni modellashtirish qimmatligi sababli sug'urta risklarini kapital bozorlariga o'tkazishni qiyinlashtiradi [6].

Sodiqova va Abdurasulovning tadqiqotlariga ko'ra, xedjingni to'g'ri tashkil qilish orqali risklarni kamaytirish, buning natijasida esa likvidlikka ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin[9]. Bundan tashqari boshqa tadqiqotda takoful kompaniyalari duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar qatorida ularning moliyaviy hisobotlarida alohida standartlarning mavjud emasligi ta'kidlanadi, bu esa o'z navbatida, likvidlikni saqlab turishda regulyativ qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi ehtimoli bor [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumotlar bazasini yaratishda Python BeautifulSoup hamda Selenium algoritmlaridan foydalandik va Iqtisodiyot va moliya vazirligi korporativ axborot yagona portalidan sug'urta tashkilotlarining 2 choraklik ma'lumotlarini webscraping usulida yig'ib oldik. Natijada tahlillarimizda 40 dan ortiq kompaniyaning 2022-yilning oxirgi ikkita choragi ma'lumotlarini kuzatish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda korrelyatsion va regression tahlildan foydalandik, berilgan gipotezalarini tekshirishda modeldagi geteroskandastiklik, multikollinearlik va normal taqsimlanmaganlik effektlaridan tozalashga harakat qildik.

Tahlil va natijalar. Bizga ma'lumki, har qanday tashkilotda, xususan, sug'urta va takoful tashkilotlarida ham moliyaviy hisobotlardan foydalanib, joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblash imkoniyati mavjud. Xususan, B.N.Lalithchandra tadqiqotlariga ko'ra, likvidlikni tahlil qilish kompaniyaning keyinchalik rentabelligini ta'minlashga qaratilgan optimal yechimlarni taklif qilishga turtki beradi [7].

Joriy likvidlikni hisoblash formulasi esa quyidagicha:

$$\text{Likvidlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}}$$

SUG'URTA ISHI

Ya'ni joriy likvidlik koeffitsiyenti berilgan vaqtda kompaniyaning o'z joriy majburiyatlarini joriy aktivlar bilan qoplay olish darajasini ifodalaydi. Unga ta'sir qiluvchi omillar ko'p, biz esa modelimizda mustaqil o'zgaruvchilar dastavval sifatida joriy majburiyatlar hamda balansdagi sug'urta zaxiralarining ulushini oldik. Shuni ham ta'kidlash joizki, biz tadqiqotimizda sug'urta tashkilotlarining to'lovga layoqatliligi qat'iyiligini oshirish maqsadida joriy aktivlar sifatida faqat pul mablag'larini inobatga oldik, chunki eng likvid vosita sifatida pul mab-

lag'lari sug'urta majburiyatlarini qoplashning eng tez va samarali manbai hisoblanadi.

$$y = \beta_0 + \beta_1 \cdot x_1 + \beta_2 \cdot x_2 + \varepsilon$$

Bu yerda: y – joriy likvidlik koeffitsiyenti, x_1 – sug'urta zaxiralarining balansdagi ulushi, x_2 – joriy majburiyatlar summasi.

To'plangan ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi quyidagicha:

Descriptive Statistics

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
pul over majburiyat	82	7.567	35.699	.031	318.587
zaxira ulushi	82	.466	.156	.033	.763
Joriy majburiyat	82	12372920	26985475	6563	1.762e+08

Ushbu modelda o'zgaruvchilar qiymatining intervali boshqalaridan keskin farq qilganligi tufayli ko'p omilli chiziqli regression modelimizning natijalari normal taqsimlanmaganlik, geteroskadastik

kabi effektlar ta'siriga uchradi, shuningdek, parametrlarining statistik ahamiyatlilik darajasi ham modelni asoslashga yetarli deb topilmadi.

Linear regression

Likvidlik koeffit.	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
Zaxira ulushi	-.437	25.606	-0.02	.986	-51.404	50.53
Joriy majburiyat	0	0	-0.82	.416	0	0
Constant	9.273	12.616	0.73	.465	-15.839	34.385
Mean dependent var		7.567	SD dependent var		35.699	
R-squared		0.008	Number of obs		82	
F-test		0.336	Prob > F		0.715	
Akaike crit. (AIC)		823.324	Bayesian crit. (BIC)		830.544	

Shu bois modelimizni transformatsiya qilishni lozim topdik va u quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

$$\ln(y) = \beta_0 + \beta_1 \cdot x_1 + \beta_2 \cdot \ln(x_2)$$

Modelni transformatsiya qilganimizning sababi shuki, ma'lumotlarni logarifmlash ularning shkalasini kamaytirishga va normal taqsimlanganlikni oshirishga xizmat qiladi [8]. Bizning dastlabki modelimizda ham ma'lumotlar chap tomonga tortilgan (*skewed*) va shkalasi katta edi. Shu bois ham

yuqoridagi munosabat bo'yicha tadqiqotimizni davom ettirdik.

Tadqiqotimizda quyidagi ikkita gipotezani tekshiramiz:

a) $H_0: \beta_1 = 0, H_A: \beta_1 \neq 0;$

b) $H_0: \beta_2 = 0, H_A: \beta_2 \neq 0.$


Avvalo, tanlangan o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya darajasini aniqlab oldik va natijalar quyidagicha ko'rinish oldi:

Pairwise correlations

Variables	(1)	(2)	(3)
(1) lk	1.000		
(2) zaxira_ulushi	0.178*	1.000	
(3) ln majburiyat	-0.694***	0.138	1.000

Natijalardan ko'rinib turibdiki, likvidlik koeffitsiyentida va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya mavjud va u statistik ahamiyatli.

Faqat majburiyat manfiy ta'sir kuchiga ega, zaxira ulushi esa musbat.



1-rasm. a,b,c – uchta omilning taqsimot grafigi, d – eng katta korrelyatsiyaga ega bo'lgan ikki omil o'rtasidagi munosabat.

Chiziqsiz regressiya modelimizning parametrlari esa quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

Linear regression							
lk	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
zaxira_ulushi	3.254	.88	3.70	0	1.502	5.006	***
Ln majburiyat	-.724	.075	-9.69	0	-.873	-.575	***
Constant	9.21	1.136	8.11	0	6.949	11.471	***
Mean dependent var		-0.015	SD dependent var			1.822	
R-squared		0.558	Number of obs			82	
F-test		49.770	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		269.238	Bayesian crit. (BIC)			276.458	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Natijalardan ma'lum bo'ladiki, sug'urta tashkilotlari buxgalteriya balansida sug'ura zaxiralari-ning bir foizga ortishi joriy likvidlik koeffitsiyentini 3,2 %ga oshiradi. 95 % holat bilan bu ko'rsatkich 1,5 %dan 5 %gacha tebranishi mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, sug'urta zaxirasi bir foizga ortganda, likvidlik koeffitsiyenti doim 1 foizdan kattaroqqa ortadi ($p < 0.05$).

Sug'urta majburiyatlarining ta'siri manfiy bo'lishi hech kimga sir emas, chunki likvidlik koeffitsiyentining hisoblanishida joriy majburiyat maxraj bo'lib qatnashadi, demak, uning ortishi likvidlik koeffitsiyentini kamaytiradi. Biz tadqiqotimiz orqali esa aynan qanchaga kamaytirishini hisoblashga harakat qildik. Natijalarimizga ko'ra, sug'urta majbu-

riyatlarining 1 %ga ko'proq bo'lishi likvidlik koeffitsiyentini 0,72 %ga kamaytiradi. 95 foiz aniqlikda aytish mumkinki, bu ko'rsatkich 0,87 % va 0,57 % o'rtasida tebranib turadi. Statistik jihatdan olib qaraganda, xulosa qilish mumkinki, sug'urta tashkilotlari joriy majburiyatlarining 1 %ga ortishi likvidlik koeffitsiyentini 1 %dan kamroqqa pasaytiradi.

Determinatsiya koeffitsiyenti 0,558 chiqqani modelimizdagi mustaqil o'zgaruvchilar nomustaqil o'zgaruvchilarni 56 %ga izohlab kelayotganini anglatadi. Fazoviy ma'lumotlar tahlilida determinatsiya koeffitsiyenti 0,1 dan 0,4 gacha ko'p uchrashini inobatga olsak, bizdagi ko'rsatkichning yaxshi ekanligini xulosa qilsak bo'ladi.

Tadqiqot natijasida topilgan parametrlarimizning noldan farqli ekanligini F-test orqali tekshirdik, testning H_0 gipotezasida "regressiyaning barcha parametrlari nolga teng" deb qo'yilgan, testning natijasida $Prob > F = 0.000$, ya'ni H_0 gipotezani juda katta aniqlik bilan rad etdik, demak, regression modelimiz ma'noga ega.

Styudentning t –testi har bir parametr uchun gipotezalarni alohida tekshiradi. Ushbu test natijalariga ko'ra, har ikkala mustaqil o'zgaruvchining parametrlari (β_1, β_2) p ning 0,05 qiymatigacha oraliqda statistik jihatdan ahamiyatli, ya'ni har ikkalasi ham aniq noldan farqli.

AIC va BIC kriteriyalarni avvalgi va hozirgi transformatsiyalashgan modellarda solishtiradigan bo'lsak, transformatsiya qilingan modelimiz to'plangan ma'lumotlarni aniqroq izohlab kelayotganini ko'rishimiz mumkin.

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
Lk	82	0.980	1.425	0.778	0.218
zaxira ulushi	82	0.986	1.003	0.006	0.498
Ln majburiyat	82	0.976	1.694	1.156	0.124

Normal taqsimlanganlik testida H_0 gipotezada "ma'lumotlar normal taqsimlangan" deb qo'yilgan, bizdagi natijalarda esa p ning qiymati barcha mustaqil o'zgaruvchilarda 0,05 dan kattaligi bois biz o'sha gipotezada qolamiz. Ya'ni ma'lumotlarimiz normal taqsimlangan.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlarimizdan xulosa qilish mumkinki, sug'urta kompaniyalarining likvidligini ta'minlashda ulardagi sug'urta zaxirasi va majburiyatlar muhim rol o'ynaydi. 42 ta sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari o'rganib chiqilganda, likvidlik koeffitsiyenti eng baland tashkilotlar "Farovon Sug'urta" AJ (2038), "Perfect Insurance" AJ (209), "New Life Sug'urta Kompaniyasi" AJ (176) va "Kafolat Hayot Insurance" AJ (135) bo'lib chiqdi, "Kapital Sug'urta" AJ (1,57), "Apex Insurance" AJ (1.66), "Euroasia Insurance" AJ (1,92) va "Kafolat Sug'urta Kompaniyasi" AJ (3,07) sug'urta tashkilotlari esa eng past likvidlik koeffitsiyentiga ega.

Tadqiqotimizda nima uchun joriy majburiyatlarning mustaqil o'zgaruvchi sifatida olinganligi borasida savollar tug'ilishi tabiiy, chunki likvidlik koeffitsiyentini hisoblashda majburiyat maxrajda turadi, shu bois modelda birgina o'zgaruvchi tenglikning har ikki tomonida ham mavjud bo'lishi tadqiqot uslubiga bir qarashda shubha uyg'otishi mumkin. Ammo shuni aytish kerakki, moliyaviy hisob qoidalariga tayanadigan bo'lsak, amaliyotda majburiyatlar debitlanishi pul mablag'larining kreditlanishi bilan korrespondensiyalashadigan holatlar ko'p uchraydi. Bu esa likvidlik koeffitsiyentining majburiyatlar bilan proporsional o'zgaruvchiligi sabab bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda, modelimizda majburiyat alohida mustaqil o'zgaruvchi sifatida tenglikning chap tomonida ham ishtirok etmoqda.

Ma'lumotlarimizni Brosh-Pagan geteroskandastik testidan o'tkazdik, natija esa $Prob > chi^2 = 0,19$ bo'lib chiqdi. Ushbu testda H_0 gipoteza "xatoliklar variatsiyasi o'zgarmas" deb qo'yilgan, bizdagi natija 0,05 dan katta ekanligi bois biz nolinch gipotezada qoldik, ya'ni tahlilimiz natijalari geteroskandastik xususiyatiga ega emas.

Multikollinearlik testida esa VIF (variance inflation factor) o'rtachasi 1,02 ga teng chiqdi. Qoida bo'yicha, bu ko'rsatkich 10 dan baland bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik muammosi mavjud bo'lar edi. Bizdagi ko'rsatkich esa 10 dan ancha kichik, demak, modelimizda multikollinearlik muammosi yo'q.

Modelimizdagi ma'lumotlarning normal taqsimlanganligini tekshirish uchun Shapiro-Wilk testidan foydalandik va quyidagi natijalarni oldik:

Sug'urta zaxiralariga keladigan bo'lsak, 2008-yil 20-noyabrda tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi nizomda sug'urta zaxiralarni shakllantirishning qoidalari aks ettirilgan. Aksariyat sug'urta kompaniyalari sug'urta zaxiralarni ushbu nizomda ko'rsatilgan "pro-rata" uslubida shakllantiradi. Uning asosiy manbasi sug'urta mukofotlari hisoblanadi. O'rganilgan tashkilotlarning hech qaysi birida sug'urta zaxirasi aktiv sifatida pul ko'rinishida to'liq saqlanmasligini inobatga olsak, bundan sug'urta kompaniyalari pul mablag'larini zaxira hisobidan boshqa maqsadlarda ham foydalanishi ma'lum bo'ladi. Bu esa tabiiyki, likvidlikka o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bizning tahlillarimiz natijalariga ko'ra, sug'urta zaxiralari ulushi va likvidlik o'rtasida musbat bog'liqlik mavjud. Zaxira ulushining ortishi, birinchidan, zaxiraning absolyut miqdori ortishi oqibatida, ikkinchidan esa majburiyatlarining kamayishi oqibatida yuz berishi mumkin. Shu bilan birga, sug'urta zaxirasi ulushining likvidlik koeffitsiyentiga ta'siri multiplikativ xususiyatga ega.

Taklif o'rnida shuni aytish mumkinki, sug'urta tashkilotlari favqulodda zararlarning oldini olish maqsadida likvidlikni saqlab turishga e'tibor berishi zarur. Buning uchun esa joriy majburiyatlarning dinamikasini nazorat qilishi, sug'urta zaxirasini o'z hisob raqamlarida yoki talab etilganga qadar omonatlarda saqlashi mumkin bo'ladi, ammo islom moliyasi tamoyillari asosida ish yuritadigan takoful tashkilotlari bank omonatlariga murojaat qilmaydi, shu bois ularning mablag'lari qisqa muddatli likvid investitsiyalar ko'rinishida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurasulov B. (2022) *Mol-mulk sug'urtasi bazaviy tariflari va majburiyatlarini muvofiqlashtirish modeli: Toshkent shahridagi turar joylar misolida.* // *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(6), 301-308. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a853
2. Agarkova Lyubov Vasilievna and Agarkov V.D. *Features of assessing the liquidity and solvency of the insurer* (2020).
3. Perotti, Enrico and Javier Suárez. *Liquidity insurance for systemic crises* (2009).
4. Nizametdinov Alijon. "Sug'urta faoliyatini amalga oshirish omillari". *Scienceweb academic papers collection* (2022).
5. Liu, Hui-Hsuan et al. "Reinsurance and Liquidity: Evidence from the United Kingdom General Insurance Industry". *The Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice* 41 (2016): 307-324.
6. Wemmer Dieter. "The Securitization of Insurance Liabilities: The View from Zurich". *The Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice* 33 (2008): 1-6.
7. Lalithchandra B.N. "Liquidity ratio: an important financial metrics". *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)* 12.2 (2021): 1113-1114.
8. Hill, R. Carter, William E. Griffiths and Guay C. Lim. *Principles of econometrics*. John Wiley & Sons, 2018.
9. Садиқова Рано Абдуллаевна, and Абдурашулов Бехзодбек Баходир Ўғли. "Инвестицион рискларни камайтиришда хеджирлаш ва унинг аҳамияти" *Экономика и финансы (Узбекистан)*, no. 9, 2019, pp. 57-62.
10. Abdurasulov B. "Challenges and recommendations for takaful accounting". "Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari" Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to'plami, June 2023, pp. 150-2, <https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/370>.